

“BUDDISTLARNING MUQADDAS IBODATXONASI – ANGKOR VAT”

Rustamaliyev Jaxongir Faxriddin o'g'li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namnagan filiali tarix
(mamlakatlar vamintaqalar aro) yo 'nalishi II bosqichtalabasi*

Annotatsiya: Barchaga ma'lumki musulmonlar uchun Kaba qanchalik muqaddas va ilohiy maskan hisoblansa buddistlar uchun Angkor Vat huddi shunday muhim obyekt hisoblanadi. Angkor Vat o'zining qadimiyligi arxitektura jixatidan mukammal qurilganligi hamda bugungi kungacha saqlanib kelganligi bilan tarixchi olimlar, arxeologlar shuningdek millionlab turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ushbu maqola orqali Angkor Vat yodgorligini tarixda qanday axamiyat kasb etganligini bilib olamiz.

Kalit so'zlar: Angkor Vat, Klaster, barelyef, kvadrant, piramida, Ma'bad,

Angkor Vat so'zining kelib chiqishi Sanskritcha nagara so'zidan olinga bo'lib, "shahar" degan ma'noni anglatadi ya'ni "shahar ibodatxonasi" degan tushunchasini ifodalaydi. Shuning uchun ham bir vaqtning o'zida markaziy ibodatxonalarini o'rabi turgan shaharga ishora qilingan deya ta'rif beriladi¹.

Angkor Vat bu ibodatxonalar klasteridagi eng katta inshoot bo'lib, Siem Reap provintsiyasidan taxminan olti kilometr shimolda joylashgan. U dastlab hind xudosi Vishnuga bag'ishlab qurilgan hisoblanib, qurilish jarayoni 1116 yilda, qiroq Suryavarman II (1113-1150) imperator bo'lganidan uch yil o'tgach boshlanib, 1150 yilda qiroq vafotidan ko'p o'tmay qurib bitkazilgan. Angkor Vat qadimiy Kxmer san'atining durdona arxitekturasi hisoblanib, unda bir kilometrdan ortiq ajoyib o'yilgan barelyef devoriy rasmlari mavjud. Asosiy ma'bad to'rtburchak shakliga ega va yuqoriga tomon ko'tarilib pasaygan minoralari xuddi piramida ko'rinishini olishiga sabab bo'ladi². Majmuaning kattaligi shuni ko'rsatadiki, Angkor-Vatni qurish oson jarayon emas edi. Bundan tashqari, bu inshootni qurish uchun 300 000 ishchi jalb etilgan bo'lib, ular orasida me'morlar, haykaltaroshlar, tosh ustalari, qurilish ishchilar va xizmatchilar faoliyat yuritgan. Vaholanki, Angkor Vatning ko'p qismi toshdan qurilganligi bois inshootning qurilishiga 30 yildan ortiq vaqt sarflanishiga sababchi bo'lgan. Ushbu bino qurilish usuli va unga tomon yo'llarning o'ziga xos tarzda sharqdan kirib kelinishi, qiroq Suryavarman II ning dafn yodgorligi uchun qabr sifatida mo'ljallangan deya taxmin qilinadi. Kanadalik yozuvchi va astranom olim Austin

¹ APSARA veb-saytidan iqtibos keltirildi,
<http://www.autoriteapsara.org/en/apsara.html>, 2005 yil 5 fevral.

² Chou Ta-Kuan, Trans. Paul Pelliot and J.

Gilman Arsi Pol. Kanbodja odatlari(Bangkok: The Siam jamiyati, 1992)

Mardon o'zining "Angkor Vat" asarida hind ibodatxonalarining aksariyati sharqqa qarab qurilishi hindlarning halokat va yaratilish xudosi Shiva bilan bog'liq chunki, Shiva kompasning sharqiy kvadranti uchun javobgardir deya ta'rif beradi³.

Qirol Suryavarman II dan keyin ko'plab hukmdorlar ma'badni siyosiy maqsadlarda va buddist e'tiqodlarini targ'ib qilish uchun o'zgartirdilar va qayta loyihalashtirdilar. Darhaqiqat, 1295 yilda qurilish tugashi bilan Angkor Vat allaqachon buddistlar uchun sig'inish joyiga aylangan edi. Ma'bad majmuasi hozirda buddistlar uchun sajdagoh bo'lib hizmat qiladi. Shunday bo'lishiga qaramay Angkor Vat qirol Suryavarman II ning asl maqsadlarini saqlab qoldi. Chunki, hozirda ham Inshoot devorlariga nazar tashlanadigan bo'lsa ko'plab hindu ramzlarini ko'rishimiz mumkin.

Angkor Vat o'z davrida gullab-yashnayotgan Angkor shahrining markaziga aylandi, chunki, uning atrofida ko'plab ustaxonalar va uylar qurilib, aholiga xizmat ko'rsatish uchun bozorlar va mahalliy korxonalar barpo etildi. Taxminlarga ko'ra, shaharda 1 milliondan ortiq odam istiqomat qilgan bo'lib u sanoat inqilobigacha dunyodagi eng yirik aholi punkti sifatida bo'lib kelganligi aytib o'tiladi.

Afsuski, Angkor Vatning asosiy dizayneri haqida aniq dalillar yo'q, ammo ba'zi manbalarga asoslangan xolda quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi; Divakarapandita Suryavarman II ning bosh ruhiy maslahatchisi bo'lib, Angkor Vatning qurilishida bosh me'mor bo'lib faoliyat yuritgan. U o'z davrining juda hurmatli ruhoniylaridan bo'lган. Buni Meru tog'ining Angkor Vat dizayniga kiritilganligida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Chunki Meru tog'i qadimdan hinduizmdagi xudolarning uyi bo'lib, u ruhiy yordam manbai sifatida qadimdan ishonib kelingan. Bundan tashqari, Angkor Vatning markaziy minorasida Meru tog'ining ifodalaganligi qirol Suryavarman II ning o'zini xudo sifatida ko'rsatganligini ham ifodalaydi deya taxmin qilinadi. Hozirda ham Arxitektura dizaynining aksariyat qismida qirol Suryavarman II ning ma'naviy va siyosiy ahamiyatini ifodalovchi omillar bilan bir qatorda hinduizm mafkurasini va an'analarini aks ettiruvchi turli xil shakldagi figuralar mavjud⁴.

Chjou Daguan xitoylik diplomat sifatida 13-asr oxirida Angkorga sayohat qilganida, Kanbodja va uning shaharlari haqida ma'lumotlar berib Angkor va Angkor Vat aholisining kundalik hayotini batafsil bayon qilib beradi . Uning "Kanbodja odatlari" asarida Angkor hali ham ulkan va gullab-yashnagan metropol edi va Osiyoning eng ajoyib poytaxtlaridan biri sifatida tan olindi deya ma'lumot beradi. Asarda diplomatik missiyasi va aholi kasblari haqida so'z boradi.Unga ko'ra, Angkorning ko'plab aholisi astronomiyani tushungan va oy va quyosh utilishini hisoblay olgan. Aslida, ko'plab aholi ma'bad (ya'ni Angkor Vat) qarshisida oyni kuzatish jarayonida faol ishlab kelgan. Bu esa axolining Astronomiya fanini

³ BBC. (n.d.). Shaivism and Vaishnavism. <https://www.bbc.co.uk/bitesize/guides/zvrs9q/revision/5/>

⁴ Helen Grant Ross va Darril Leon Collinz, Kanbodjani qurish: Yangi Kxmer arxitekturasi 1953-1970, Bangkok: Key Publishers, 2006:205.

o'zlashtirishda o'z hissasini qo'shmay qolmagan⁵.

Angkor Vatning hozirgi ko'rinishiga ta'rif beriladigan bo'lsa, inshoot dunyodagi eng katta yodgorliklardan biri bo'lib qolmoqda va kashfiyotlar va tahlillar uchun ajoyib ulug'vorlik va me'moriy maslahatlar berishda davom etmoqda. Bino darvozasidan kirganda, inshootning ajoyib dizayni va balandligi tashrif buyuruvchining diqqatini o'ziga tortadi. Bunday dizayn bilan qurilganligiga sababchi omil sifatida olimlar "Qirol Suryavarman ll tashrif buyuruvchilar ibodatxona devorlariga o'yib tasvirlangan hind xudolari, ajdodlari va qahramonlarining buyuk hikoyalari haqida o'qib xabardor bo'lishlarini xohlagan" deya ifodalashadi. Bilamizki, Osiyoda 108 raqamiga alohida e'tibor qaratilib bu raqam hindu va buddist matnlarida ham ko'p uchraydi. Masalan, hind xudosi Vishnuni ifodalovchi 108 ta ismi mavjud. Bundan tashqari, 108 raqami kosmologiyaga mos keladi, chunki oy va quyosh har yili deyarli 54 daraja harakat qilgani bois, oy va quyosh uchun harakat darajalarining yig'indisi 108 darajani tashkil qiladi. Aynan Angkor-Vatning markaziy qismini loyihalashda ham me'morlar minoraning qo'shimcha balandligi 108 tirsakdan iborat bo'lishini ta'minlagan holda qurishgan.

Angkor hududidagi ko'plab ibodatxonalar yevropaliklar kirib kelgan davrda ham eng yaxshi saqlanib qolgan manbalardan biri hisoblanadi. Angkor Vat shahri 1907 yilda Frantsiya tasarrufiga o'tgandan keyin ham ma'badlarga e'tiborli fransuzlarning ko'pchiligi Angkor Vatda o'qitilgan va u Angkordagi eng taniqli va tez-tez tashrif buyuradigan tuzilma bo'lib kelgan. Ko'plab urushlar tufayli buyuk imperiyaning yo'qolib ketganligi va Angkor shahrida Fransiya mustamlakasi davrida muhim tozalash va rekonstruksiya ishlari olib borilganligi tufayli hali-hanuzgacha bu shahar to'liq o'rganilganicha yo'q. Shuningdek, buddistlarning markaziy ibodatxonasi xisoblangan bu qadimiy arxitektura Kambodjada, nafaqat buddistlar balki, turistlar va arxeologlar uchun ham muhim ziyoratgoh bo'lib hizmat qilib kelmoqda⁶. Angkor Vat Kambodjada hozirda ham Shunchalik ulug'lanadiki hattoki, bu ibodatxona davlat bayrog'ida aksettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Chou Ta-Kuan, Trans. Paul Pelliot and J. Gilman Arsi Pol. Kanbodja odatlari(Bangkok: The Siam jamiyati, 1992)
- 2.Helen Grant Ross va Darril Leon Collinz, Kanbodjani qurish: Yangi Kxmer arxitekturasi 1953-1970, Bangkok: Key Publishers, 2006:205.
- 3.John Burgess, 'Angkor Vatning zamonaviy hayoti', Diplomat, 23. 02. 2021.

⁵ John Burgess, 'Angkor Vatning zamonaviy hayoti', Diplomat, 23. 02. 2021.

<https://thediplomat.com/2021/02/john-burgess-on-the-modern-life-of-angkor-wat/>

⁶Peter Xarris (trans). Chjou Daguan: Kanbodja yeri va aholisi, Bangkok: Silkworm Books, 2007.